



MILLIY IQTISODIYOTDA SANOATNING STRUKTURAVIY HOLATI VA ASOSIY SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISH DARAJASI

Tojiddinov Abrorbek

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

ORCID: 0009-0008-0544-2808

abrorbek2603@gmail.com

PhD, dots. **G'aniyeva Aziza**

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

ORCID: 0009-0001-2157-0323

azizaganieva@aifu.uz

Annotatsiya. Tadqiqotda sanoatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi muammolar, jumladan, texnologik eskirish, resurslardan samarasiz foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligining yetarli darajada emasligi va innovatsion faollikning pastligi kabi jihatlar aniqlanadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida sanoatni modernizatsiya qilish, investitsion jozibadorlikni oshirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni kengaytirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, sanoat tarmog'i, sanoat tarkibi, strukturaviy o'zgarishlar, sanoat rivojlanishi, iqtisodiy o'sish, tarmoqlar samaradorligi, raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish, modernizatsiya, diversifikatsiya, sanoat siyosati, investitsiya jozibadorligi, eksport salohiyati, ishlab chiqarish hajmi, texnologik yangilanish, hududiy rivojlanish, infratuzilma, yuqori qo'shilgan qiymat, sanoat integratsiyasi.

СТРУКТУРНОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ И УРОВЕНЬ РАЗВИТИЯ ОСНОВНЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ОТРАСЛЕЙ

Тождидинов Аброрбек

Университет точных и социальных наук

PhD, доц. **Ганиева Азиза**

Университет точных и социальных наук

Аннотация. В исследовании выявлены проблемы, препятствующие обеспечению устойчивого развития промышленности, в том числе технологическое устаревание, неэффективное использование ресурсов, недостаточный уровень производственной эффективности и низкая инновационная активность. В целях устранения данных проблем разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по модернизации промышленности, повышению инвестиционной привлекательности, расширению высокотехнологического производства и развитию научно-исследовательской деятельности.

Ключевые слова: национальная экономика, промышленная отрасль, структура промышленности, структурные изменения, развитие промышленности, экономический рост, эффективность отраслей, конкурентоспособность, инновационное развитие, модернизация, диверсификация, промышленная политика, инвестиционная привлекательность, экспортный потенциал, объём производства, технологическое обновление, региональное развитие, инфраструктура, высокая добавленная стоимость, промышленная интеграция.

STRUCTURAL STATE OF INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY AND THE LEVEL OF DEVELOPMENT OF MAIN INDUSTRIAL SECTORS

Tojiddinov Abrorbek

University of Exact and Social Sciences

PhD, assoc.prof. **G'aniyeva Aziza**

University of Exact and Social Sciences

Abstract. The study identifies problems hindering the sustainable development of industry, including technological obsolescence, inefficient use of resources, insufficient production efficiency, and low innovation activity. In order to address these problems, scientifically grounded proposals and recommendations are developed for industrial modernization, increasing investment attractiveness, expanding high-tech production, and developing research activities.

Keywords: national economy, industrial sector, industrial structure, structural changes, industrial development, economic growth, sectoral efficiency, competitiveness, innovative development, modernization, diversification, industrial policy, investment attractiveness, export potential, production volume, technological renewal, regional development, infrastructure, high added value, industrial integration.

Kirish.

Milliy iqtisodiyotning barqaror va yuqori sur'atlarda rivojlanishini ta'minlashda sanoat tarmog'i hal qiluvchi o'rin egallaydi. Sanoat ishlab chiqarishning asosiy drayveri sifatida nafaqat yalpi ichki mahsulot hajmini oshiradi, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda mamlakatning xalqaro iqtisodiy tizimdagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli milliy iqtisodiyotda sanoatning strukturaviy holatini o'rganish va asosiy sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasini baholash dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar natijasida sanoat tarmog'ida muhim tarkibiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirish, mahalliyashtirish darajasini oshirish va sanoatni diversifikatsiya qilish jarayonlari jadallashdi. Shu bilan birga, global iqtisodiy integratsiya, raqamlashtirish va innovatsion rivojlanish kabi omillar sanoat tarmoqlarining yangi bosqichga ko'tarilishini talab qilmoqda. Bunday sharoitda sanoatning mavjud tarkibiy holatini chuqur tahlil qilish, uning ichki muvozanatini aniqlash va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash zarur hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi milliy iqtisodiyotda sanoatning strukturaviy holatini tahlil qilish hamda asosiy sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasini baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun sanoat tarmoqlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, ishlab chiqarish hajmi, eksportdagi hissasi hamda texnologik rivojlanish darajasi o'rganiladi. Shuningdek, sanoatning tarmoqlar kesimidagi o'zgarish dinamikasi, ularning o'zaro bog'liqligi va iqtisodiy samaradorligi ham tahlil qilinadi. Tadqiqotning obyekti sifatida milliy iqtisodiyotning sanoat sektori, predmeti sifatida esa sanoatning tarkibiy tuzilmasi va asosiy tarmoqlarining rivojlanish jarayonlari olinadi. Tadqiqot

jarayonida statistik tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalaniladi. Ushbu usullar orqali sanoat tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish imkoniyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari sanoatni yanada rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish, innovatsion faoliyatni kengaytirish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur ish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, sanoat siyosatini takomillashtirish va iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan muvozanatli rivojlanishiga erishishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi.

Milliy iqtisodiyotda sanoatning strukturaviy rivojlanishi va uning tarmoqlar kesimidagi o'zgarishlari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar sanoatning iqtisodiy o'sishdagi roli, tarkibiy siljishlar, sanoatlashtirish jarayonlari hamda innovatsion rivojlanish omillarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Iqtisodiy rivojlanish va strukturaviy o'zgarishlar nazariyasiga katta hissa qo'shgan Simon Kuznets o'z tadqiqotlarida iqtisodiy o'sish jarayonida tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlarning o'zgarishi muhim ekanligini asoslab bergan. Uning fikriga ko'ra, iqtisodiyot rivojlangan sari qishloq xo'jaligidan sanoat va xizmat ko'rsatish sohalariga o'tish jarayoni kuzatiladi (Kuznets, 1966).

Sanoatlashtirish va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur o'rgangan Walt Rostow "iqtisodiy o'sish bosqichlari" nazariyasida sanoatning yetakchi rolini ta'kidlaydi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, iqtisodiyotning tez rivojlanish bosqichi sanoat ishlab chiqarishining jadal o'sishi bilan bog'liq (Rostow, 1960).

Sanoat tarmoqlarining strukturaviy rivojlanishini empirik jihatdan asoslab bergan Hollis B. Chenery (1979) iqtisodiy rivojlanish davomida tarmoqlar ulushining o'zgarishini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilgan.

Albert O. Hirschman esa iqtisodiy rivojlanishda "oldinga tortuvchi tarmoqlar" (leading sectors) konsepsiyasini ilgari surib, ayrim sanoat tarmoqlari boshqa tarmoqlarni rivojlantirishda lokomotiv vazifasini bajarishini ko'rsatgan (Hirschman, 1958).

Innovatsiyalar nazariyasi asoschisi Joseph Schumpeter iqtisodiy rivojlanishda texnologik yangilanish va innovatsiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. U sanoat tarmoqlarida "ijodiy vayronkorlik" jarayoni orqali yangilanish sodir bo'lishini izohlaydi (Schumpeter, 1934).

Sanoatning raqobatbardoshligini tahlil qilishda Michael Porterning ilmiy ishlari muhim bo'lib, u mamlakatlarning sanoat ustunliklarini klasterlar orqali rivojlantirish mumkinligini asoslab bergan (Porter, 1990).

Zamonaviy o'sish nazariyasi vakili Paul Romer bilim va innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida ko'rib, sanoat rivojida ilmiy-texnik taraqqiyotning rolini ochib bergan (Romer, 1990).

Mahalliy olimlardan A. Vahobov (2019) O'zbekiston iqtisodiyotida sanoatni modernizatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlar masalalarini tadqiq qilgan bo'lsa, S. Gulyamov sanoatni diversifikatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish yo'nalishlarini ilmiy asoslab bergan.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar sanoatning tarkibiy rivojlanishi iqtisodiy o'sishning muhim omili ekanligini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot aynan shu nazariy yondashuvlarga tayangan holda milliy iqtisodiyotda sanoatning strukturaviy holatini tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

Birinchiidan, statistik tahlil usuli yordamida sanoat tarmoqlarining asosiy ko'rsatkichlari — ishlab chiqarish hajmi, yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, eksport hajmi, investitsiyalar va bandlik darajasi o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar asosida sanoatning tarkibiy tuzilmasi va uning o'zgarish dinamikasi aniqlanib, tarmoqlar kesimida rivojlanish darajasi baholandi.

Ikkinchiidan, taqqoslash (komparativ) tahlil usuli orqali turli davrlar va hududlar kesimida sanoat rivojlanish ko'rsatkichlari solishtirildi. Bu usul sanoat tarmoqlaridagi o'zgarish tendensiyalarini aniqlash hamda rivojlanishdagi farqlarni baholash imkonini berdi.

Uchinchiidan, tizimli yondashuv asosida sanoat tarmoqlari o'zaro bog'liq yagona tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bu orqali sanoat ichidagi vertikal va gorizontal aloqalar, tarmoqlararo integratsiya hamda ishlab chiqarish zanjirlarining samaradorligi tahlil qilindi.

To'rtinchiidan, iqtisodiy-matematik tahlil usullari qo'llanilib, sanoat tarmoqlarining rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqliklar o'rganildi. Bu usul orqali ayrim omillarning sanoat rivojiga ta'siri baholanib, prognoz xulosalar shakllantirildi.

Beshinchiidan, induktiv va deduktiv tahlil usullari yordamida umumiy nazariy qarashlardan kelib chiqib xulosalar chiqarildi hamda amaliy ma'lumotlar asosida ilmiy umumlashtirishlar amalga oshirildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi), ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda rasmiy hisobotlar tashkil etadi. Ushbu ma'lumotlar sanoatning real holatini aks ettirish va tahlil natijalarining ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.


Mazkur metodologiya asosida sanoatning strukturaviy holati kompleks baholanib, asosiy sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasi aniqlanadi hamda ularni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqil

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Milliy iqtisodiy o'sishning barqarorligi va yuqori sur'atlarini ta'minlashda sanoat ishlab chiqarishining tarkibiy tuzilmasi va tarmoqlar bo'yicha rivojlanish darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda sanoatning strukturaviy holati ishlab chiqarish resurslarining taqsimlanishi, qo'shilgan qiymat yaratilishi hamda iqtisodiy o'sish manbalarining shakllanishini belgilab beradi. Shu bois sanoat tarmoqlarining tarkibiy o'zgarishlarini tahlil qilish milliy iqtisodiyotning hozirgi holati va istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlarini baholashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. So'nggi yillarda milliy iqtisodiyotda sanoat tarmoqlarini innovatsion yangilanish va ishlab chiqarish bazasini kengaytirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirishga qaratilgan tarkibiy islohotlar amalga oshirilmogda. Ushbu jarayon sanoatning an'anaviy tarmoqlaridan tashqari, qayta ishlash va innovatsion yo'nalishlarning rivojlanishiga turtki bermogda. Biroq sanoat ishlab chiqarishida ayrim tarmoqlarning ustunligi saqlanib qolayotgani, hududlar va tarmoqlar o'rtasida rivojlanish darajasidagi tafovutlar mavjudligi strukturaviy tahlilni yanada chuqurlashtirish zaruratini keltirib chiqarmogda. Shu nuqtai nazardan, mazkur bo'limda milliy iqtisodiyotda sanoat ishlab chiqarishining strukturaviy holati, asosiy sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasi hamda ularning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish hajmi, tarkibiy ulushi va rivojlanish dinamikasi baholanib, mavjud tendensiyalar va muammoli jihatlar aniqlanadi. Keltiriladigan jadvallar va hisob-kitoblar sanoat ishlab chiqarishining hozirgi holatini ob'ektiv baholash hamda uning istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini asoslab berishga xizmat qiladi. 2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikada 59,8 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritmogda. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida korxonalarining katta qismi quyidagilarga:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi – 11,9 mingta (20,0 %)ni tashkil etdi;

- boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘nalishi – 8,3 mingta (13,8 %)ga teng bo‘ldi;
- kiyim-kechak ishlab chiqarish tarmog‘i – 6,0 mingta (10,0 %)ni qayd etdi;
- tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sohasi – 4,8 mingta (8,0 %)ni tashkil qildi;
- mebel ishlab chiqarish yo‘nalishi – 4,1 mingta (6,9 %)ga yetdi;
- to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi – 3,7 mingta (6,2 %)ni tashkil etdi;
- rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish tarmog‘i – 2,8 mingta (4,7 %) ulushga ega bo‘ldi.




- Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish
- Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish
- Kiyim ishlab chiqarish
- Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish
- Mebel ishlab chiqarish
- To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish
- Boshqa faoliyat turlari

1-rasm. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalari ulushi

Manba: O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 1 101,1 trln so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 6,8 foizga oshgan.



2-rasm. Sanoat ishlab chiqarish hajmi (trln so'mda)


Manba: O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Milliy iqtisodiy o'sishning barqaror va yuqori sur'atlarini ta'minlashda sanoat ishlab chiqarish hajmining dinamikasi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Sanoat ishlab chiqarish hajmidagi o'zgarishlar iqtisodiyotning real sektoridagi faollik darajasi, investitsiya jarayonlari hamda tarkibiy islohotlarning samaradorligini aks ettiradi. Shu bois sanoat ishlab chiqarish hajmining yillar kesimidagi o'sish sur'atlarini tahlil qilish milliy iqtisodiyot rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi. Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 456,1 trln so'mni tashkil etgan. 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 553,3 trln so'mga yetib, 2021-yilga nisbatan 97,2 trln so'mga yoki 21,3 foizga oshgan. Mazkur o'sish sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish quvvatlarining kengaytirilishi, pandemiyadan keyingi iqtisodiy faollikning tiklanishi hamda ichki bozor talabining ortishi bilan izohlanadi.

2023-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 659 trln so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 105,7 trln so'mga yoki 19,1 foizga o'sish qayd etilgan. Ushbu davrda sanoat ishlab chiqarishining oshishiga investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi, qayta ishlash sanoati ulushining kengayishi hamda davlat tomonidan sanoatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar ijobiy ta'sir ko'rsatganini ta'kidlash mumkin.

2024-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 885,8 trln so'mga yetib, 2023-yilga nisbatan 226,8 trln so'mga yoki 34,4 foizga oshgan. Bu davrdagi yuqori o'sish sur'atlari sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ko'payishi hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushining ortishi bilan bog'liqdir. Shuningdek, tashqi bozorlarda talabning oshishi ham sanoat ishlab chiqarish hajmining keskin o'sishiga sabab bo'lgan.

2025-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 1101,1 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 215,3 trln so'mga yoki 24,3 foizga oshgan. Mazkur natija sanoat tarmog'ining barqaror rivojlanayotganini, tarkibiy islohotlarning izchil davom ettirilayotganini va ishlab chiqarish samaradorligi oshib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, sanoat infratuzilmasining rivojlanishi va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi ushbu o'sishda muhim rol o'ynagan. Umuman olganda, 2021–2025-yillar davomida sanoat ishlab chiqarish hajmining izchil va yuqori sur'atlarda o'sib borishi milliy iqtisodiyotda sanoat sektorining yetakchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Kuzatilayotgan o'sish tendensiyalari sanoatni texnik tashkil qilish, investitsiya muhitini yaxshilash va ishlab chiqarish tarkibini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini ko'rsatib, kelgusida iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash uchun mustahkam asos yaratadi.



3-rasm. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi (mln so'mda)

Manba: O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi ularning tabiiy-resurs salohiyati, ishlab chiqarish infratuzilmasi, investitsiya faolligi hamda mehnat resurslarining mavjudligi bilan chambarchas bog'liqdir. Ayrim hududlarda sanoat ishlab chiqarishining yuqori konsentratsiyasi kuzatilsa, boshqa hududlarda sanoat faolligi nisbatan past bo'lib qolmoqda. Bu holat hududlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarni keltirib chiqarib, sanoatni hududiy jihatdan yanada muvozanatli rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Quyidagi grafikda 2021–2025-yillar davomida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'zgarish tendensiyasi tasvirlangan bo'lib, u mamlakat sanoat tarmog'ining bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkich iqtisodiy tahlilda muhim indikatorlardan biri hisoblanadi, chunki u nafaqat umumiy ishlab chiqarish hajmini, balki sanoat rivojlanishining aholi soniga nisbatan samaradorligini ham ifodalaydi.

Grafik ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 13,1 mln so'mni tashkil etgan. Ushbu davr pandemiyadan keyingi tiklanish bosqichiga to'g'ri kelib, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini qayta faollashtirish, ichki bozor talabining tiklanishi hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarning kuchayishi bilan xarakterlanadi. 2022-yilda ko'rsatkich 15,5 mln so'mga yetib, oldingi yilga nisbatan sezilarli o'sish qayd etilgan.

Bu o'sish sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasining ortgani, kichik va o'rta sanoat subyektlari faoliyatining kengaygani hamda investitsion loyihalarning amalga oshirilishi bilan izohlanadi. 2023-yilda aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi 18 mln so'mga yetib, o'sish sur'ati izchil davom etgani kuzatiladi.

Bu davrda sanoatni transformatsiya qilish, energiya samarador texnologiyalarni joriy etish va mahalliy lashtirish dasturlarining kengayishi muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, qayta ishlash sanoati ulushining ortishi qo'shilgan qiymatning oshishiga olib kelib, umumiy ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilagan. 2024-yilga kelib o'sish dinamikasi yanada tezlashganini ko'rish mumkin. Ko'rsatkich 23,7 mln so'mga yetib, avvalgi yilga nisbatan ancha yuqori sakrash kuzatilgan.

Bu holat sanoat ishlab chiqarishining hududlar kesimida kengayishi, yangi sanoat zonalarini tashkil etilishi, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi hamda logistika infratuzilmasining yaxshilanishi bilan bog'liq.

Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar jalb qilinishi va texnologik yangilanish jarayonlari sanoat samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Grafikdagi eng yuqori natija 2025-yilda qayd etilib, aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 29,1 mln so'mni tashkil etgan. Bu esa besh yil ichida ko'rsatkich deyarli 2,2 baravar oshganini anglatadi.

Bunday natija sanoat siyosatining izchil olib borilgani, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini ko'paytirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bevosita bog'liq. Bundan tashqari, ishlab chiqarish samaradorligining ortishi aholi bandligi va daromadlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli yuqori. Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ko'rib chiqilayotgan davrda sanoat sektori iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Aholi jon boshiga hisoblangan ko'rsatkichning muntazam oshib borishi iqtisodiyotda ishlab chiqarish hajmi nafaqat kengayayotganini, balki resurslardan foydalanish samaradorligi ham ortib borayotganini bildiradi.

Bu jarayon hududlar sanoatlashuvining kuchayishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va ichki bozor barqarorligining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, 2021–2025-yillar oralig'ida kuzatilgan ijobiy o'sish tendensiyasi mamlakat sanoat rivojlanish strategiyasining samarali amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Kelgusida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, eksport salohiyatini oshirish va ishlab chiqarishda yuqori texnologik mahsulotlar ulushini ko'paytirish orqali ushbu o'sish sur'atlarini yanada barqaror davom ettirish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqotda milliy iqtisodiyotda sanoatning strukturaviy holati va asosiy sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasi kompleks tarzda tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida sanoat iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish, bandlikni ta'minlash va eksport salohiyatini kengaytirishda ham muhim rol o'ynashi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sanoat tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlar jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshib, an'anaviy tarmoqlardan yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarish yo'nalishlariga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ayniqsa, mashinasozlik, kimyo sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish hamda oziq-ovqat sanoatida o'sish sur'atlari nisbatan yuqori ekanligi qayd etildi. Shu bilan birga, ayrim tarmoqlarda texnologik eskirish, resurslardan samarasiz foydalanish va innovatsion faollikning pastligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida sanoat rivojlanishini jadallashtirish uchun bir qator muhim yo'nalishlar belgilandi. Jumladan, sanoatni modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni kengaytirish, innovatsiyalarni joriy etishni rag'batlantirish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish zarur. Shuningdek, sanoat tarmoqlari o'rtasidagi kooperatsiya va integratsiyani kuchaytirish, hududiy sanoat siyosatini takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, sanoatning samarali rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, uning raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro iqtisodiy tizimdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari sanoat siyosatini takomillashtirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/References:

Albert O. Hirschman (1958) *The strategy of economic development*. Yale University Press.

Chenery, H.B. (1979) *Structural change and development policy*. Oxford University Press.

Gulyamov, S. (2020) *Raqamli iqtisodiyot va sanoat rivoji*. Toshkent.

Kuznets, S. (1966) *Modern economic growth: Rate, structure and spread*. Yale University Press.

Mirziyoyev, Sh. (2017) *Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz*. Toshkent.

Mirziyoyev, Sh. (2018) *Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz*. Toshkent.

Mirziyoyev, Sh. (2020) *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent.

Mirziyoyev, Sh. (2022) *2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi*. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (n.d.) *Rasmiy statistik ma'lumotlar to'plami*. Available at: <https://stat.uz>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi (n.d.) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sanoatni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari*. Available at: <https://lex.uz>

Porter, M. (1990) *The competitive advantage of nations*. Free Press.

Romer, P. (1990) 'Endogenous technological change', *Journal of Political Economy*.

Rostow, W. (1960) *The stages of economic growth: A non-communist manifesto*. Cambridge University Press.

Schumpeter, J. (1934) *The theory of economic development*. Harvard University Press.

Vahobov, A. (2019) *O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish muammolari*. Toshkent.